



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN TA'LIM RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI

Salimova Marjona Salomovna

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya:

Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Marjonasalimova5@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7950064>

ARTICLE INFO

Received: 10th May 2023

Accepted: 18th May 2023

Online: 19th May 2023

KEY WORDS

Inklyuziv, segregatsiya, integratsiya, normalizatsiya modeli, imkoniyati cheklangan bolalar, eksklyuziya, YUNESKO, alohida ehtiyojli bolalar, ijtimoiy model.

KIRISH

Oxirgi bir necha o'n yillikda imkoniyati cheklangan insonlarni tadqiq etuvchi tashkilotlar nogironlik muammosiga muvofiq ravishda ikki yondashuvni rivojlantirishga katta e'tibor berdilar:

1. Inson huquqlariga asoslangan yondashuv;
 2. Atrof-muhitni tushinishga asoslangan yondashuv;

Yuqoridagi har ikki yondashuv nogironlikning ijtimoiy modeliga asoslanadi. Bu yerda diqqat markazida inson huquqlari va barchaning jamiyat hayotida birdek faol ishtirok etishi mumkin bo'ladigan o'zgarishlar zaruriyati muammosi turadi. Bu yondashuvlar asosida imkoniyati cheklangan insonlarni individual cheklashlar emas, balki jamiyat hayotidan chetda qoldiradigan holatni taqiqlash yotadi. Buning natijasida imkoniyati cheklangan insonlarni himoya qiluvchi ushbu tashkilotlar o'z huquqlari uchun yanada ko'proq kurashmoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLİLİ VƏ METODOLOGİYA

Shunga qaramay imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tarbiyasida teng huquqlilik masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Turli xil sabablarga ko'ra ko'plab nogironligi bor bolalar ta'lim jarayonidan chetda, yoki uy sharoitida alohida ta'lim olib kelmoqda.

Bolalarning yakka tartibda ta’lim olishi haqida ilmiy izlalishlar olib borgan Salimova G.S bu jarayonning avzalliklari va kamchiliklarini quyidagicha tasniflaydi:

Yakka tartibda o'qitishning afzalligi:

1. O'quvchi o'zini uyida erkin his qiladi.
 2. Uyalish hissini tuymaydi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim rivojlanishining tarixiy jihatni, inkllyuzivlik tamoyillari va uning mazmun-mohiyati, yuqori tashkilotlarning bu boradagi fikrlari va mamlakatimizda inkllyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari, qabul qilingan qonun xujjalari haqida so'z boradi.



3. Ko'ngli o'ksimaydi.
4. Jismoniy yoki psixik holatiga zo'riqish hissini kamroq oladi.

Yakka tartibda o'qitishning kamchiligi:

1. Do'stlar ortira olmasligi.
2. O'z qobig'iga o'ralib qolish.
3. Jamiyatga moslasha olmaslik.
4. Kelajakda ham o'z o'rnini topishga qiynalish.[1.7:155 b]

Shu o'rinda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lif rivojlanishining tarixiy jihatiga nazar tashlasak:

1. Segregatsiya (lot. Segregacio — ajratish) — biron irq yoki etnik guruhni chegaralangan hududga majburlab yoki ixtiyoriy yo'l bilan ko'chirish yohud alohida maktablar, transport vositalari, xizmat ko'rsatish korxonalari tashkil etish yoki bo'lmasa, boshqa diskriminatsiya choralarli orqali ajratib qo'yish). Boshqachasiga "Tibbiy model" deyish ham mumkin. 20-asrning 60-yillari boshidan o'rtalarigacha nogironligi bor insonlarni izolyatsiyasiga hissa qo'shdi. Nogironligi bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus mакtab va mакtab internatlarda ta'lif berish. Ushbu "Tibbiy model"ning tamoyili g'amxo'rlik qilish edi. Maxsus moddiy texnik vositalar, maxsus o'qituvchilarning mavjudligi, bolarning imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzilgan maxsus o'quv dasturlari va tibbiy yordam ko'rsatish tizimi.

Ammo to'laqonli hayotga tayyor emaslik, ijtimoiylashuvning sustligi bu tizimning kamchiliklari borligini ko'rsatib berdi. Oiladan, tengdoshlaridan izolyatsiya ijtimoiy adaptatsiyaning pastligiga olib keldi. Bir xil darajadagi bolalarning o'zaro muloqoti nutqning rivojlanmasligiga olib keladi. Ijtimoiy adaptatsiyaning pastligi sabab bola jamiyatga qo'shilishni istamaydi, uzoq yillar nogironlarsiz yashagan jamiyat esa u bilan bir davrada yashashni istamaydi. Bolalarmi oilasidan, uyidan uzoqda joylashgan internatlarda o'qishi ularning hamjamiyat hayotiga faol ishtirok etish huquqidан mahrum qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-onan mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasи qattiq bo'lib o'sadi. Zero oila tarbiyaning o'chog'i hisoblanadi.

2. Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish) "Normalizatsiya modeli". O'tgan asrning 60-yillarining o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalariga qadar rivojlanib bordi. Bu model tamoyili nogironlarni jamiyat hayotiga integratsiyalash, nogironligi bor bolalar uchun umumta'lif maktablarining maxsus sinfi.

Imkoniyati cheklangan bolani u yashayotgan jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar ruhida tarbiyalash g'oyasi. Ushbu yondashuv prinsipi-alohida ehtiyojli bola-bu turli xil faoliyat turlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega rivojlanayotgan shaxs, jamiyat bolani normal sharoitga imkon qadar yaqin yashash sharoitlari bilan ta'minlashi kerak. Buning natijasida xalqaro konsepsiyalarni imzolash orqali nogironlarga nisbatan davlat siyosatining o'zgarishi, qonunchilik bazasida nogironlarning javobgarlik va mustaqil hayot huquqi nuqtai nazaridan pozitsiyasini o'zgartirish yuzaga keldi. Integratsiyalashning kamchiligi sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan individual farqlarning keng doirasini hisobga olmaganini keltirish mumkin.

3. Inklyuziya (fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi) 80-yillarning o'rtalaridan boshlab hozirgi kunga qadar. Nogironligi bor bolalarmi boshqa bolalar bilan birga umumta'lif maktablarida ta'lif olishlarini tashkil etish.



Inklyuziv ta'lismadaniyati.«Salamanka deklaratsiyasi»ga muvofiq, har bir o'quvchining tafovut, xususiyatlarini qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovoychi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadi, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatssiyaga yo'l qo'ymaslikdir.[2.8:195 b]

MUHOKAMA

Inklyuziv ta'lismazifikasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta'lismaz qoldim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijtimoiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lismaz tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lismaz olishi, o'zlashtirishda qiyonalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rghanish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.[3.8]

Inklyuziv ta'lismasalasi 90-yillarning diqqat markazida bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta'lismaz dasturlari asosida yakuniy ish hujjalari o'rGANilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lismaz Vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.[4.6:32 b]

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojni biz jamiyat va imkoniyati cheklangan bolalar uchun bir qator foydalii jihatlari borligida ko'rishimiz mumkin:

- Inklyuziv ta'lismaz imkoniyati cheklangan bolalarga hamisha o'z oilasi va yaqinlari yonida bo'lishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lismaz natijasida ta'lismaz sifatini yaxshilashga erishish mumkin. Maxsus ehtiyojni bolalarning umumta'lism maktablarida ta'lismaz olishlari natijasida o'qitishning yangi usullari joriy etila boshlaydi;
- Inklyuziv ta'lismaz kansitishlarning oldini olishga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning umumta'lism maktablarida birga tahsil olishlari natijasida o'zaro moslashuv yuzaga keladi;
- Inklyuziv ta'lismaz sabab jamiyatda nogironligi bor insonlarga nisbatan bo'lgan noto'g'ri qarash o'zgaradi. O'zaro hurmat va tenglik munosabatlari shakllanadi.

Maqsudova Nodira Alijonovnaning "*Imkoniyati cheklangan o'smirlarni Ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslari*" mavzusidagi magistr darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida- Inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb qilishning ikki muhim omiliga to'xtalib o'tadi. Xususan:

Birinchidan, alohida ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lismaz maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojni bolalar ijtimoiy tomonidan himoyalananadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Muallif keyingi qatorlarda- "*Bu ishlarni muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan*



ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lism berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi" deydi.[5.6.:31 b]

Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lism jarayoniga jalg qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad **Eksklyuziyani (ta'limdan tashqarida qolayotgan nogironligi bor bolalar)** oldini olishdir. Bugungi fan-teknika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan globallashuv sharoitida ham turli sabablarga ko'ra (maxsus muassasalarga borib o'qishga yashash joyi juda uzoqda bo'lganligi uchun yoki moddiy mablag'ning yetishmasligi sabab, ota-onalarning o'z farzandini maxsus muassasaga borishini xohlamasligi oqibatida yoki atrofdagilardan uyalish, tortinish, nogironlikni yashirishga bo'lgan urinish, jamiyatdagi ba'zi bir imkoniyati cheklangan kishilarga nisbatan shakllangan steriotiplar kabi holatlar tufayli) ta'lism olishdan chetda qolib ketmoqda.

NATIJALAR

Yuqoridagi kabi noxus holatlar uchun optimal yechim- bu inklyuziv ta'lmdir. Jamiyatda imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan yanglish munosabat shakllangan. Bunga sabab qilib nogironligi bor bolalarni kichikligidan maxsus muassasalarda tarbiyalash va ular to'g'risida axborotning kamligini ko'rsatish mumkin. Bu kabi steriotiplarni o'zgartirish ancha qiyin masala, lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki bolalar kattalarga nisbatan o'xshashlik va farqlarni tezroq anglaydilar. Agarda imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birlgilikda ta'lism tarbiya olsalar, bu holat barcha bolalarni zaif bolalarni ham o'zlarini singari bola ekanliklarini anglab, kasitmasliklarini ta'minlashga olib kelgan bo'lar edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek "Inklyuziv ta'lism — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lism ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqligini inobatga olgan holda ta'lism muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".

YUNESKO inklyuziyani "*talabar xilma-xillagini qamrab oluvchi va individual farqlarni muammo sifatida emas, balki jarayonni boyitish imkoniyati sifatida qabul qiluvchi dinamik yondashuv*" deb biladi.

Inklyuzivlik mafkurasiga ko'ra, ta'limda inklyuziya- bu jamiyatga qo'shilish bosqichidir. Inklyuziv jamiyat g'oyasi jamiyatni va uning institutlarini shu jamiyatning barcha a'zolarining qabul qilinishi va ishtirok etishiga yordam beradigan tarzda o'zgartirishdir.

Inklyuzivlik faqatgina imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki sog'lom bolalar uchun ham rivojlangan, insonparvar va samarali ta'lism tizimi sifatida e'tirof etiladi.

Ijtimoiy model imkoniyati cheklangan insonlarni ularning teng huquqliligi va o'z huquqlari uchun kurashishlariga chorlash uchun keng miqyosda taqdim etiladi. Bu rivojlanishga butun dunyo bo'ylab davlat agentliklari tomonidan qabul qilingan va inson huquqlariga asoslangan yondashuv to'g'risidagi tasavvurga deyarli to'liq mos keladi.

Oliy Majlis **ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lism tushunchasi kiritilgan** yangi tahrirdagi "Ta'lism to'g'risida" gi qonunni qabul qildi. Uning 20-moddasida inklyuziv ta'limga shunday tarif berilgan:

20-modda. Inklyuziv ta'lism

Inklyuziv ta'lism alohida ta'lism ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xillagini hisobga olgan holda barcha ta'lism oluvchilar uchun ta'lism tashkilotlarida ta'lism olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.



Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lif tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.[6.1]

Shuningdek:

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaror qabul qilindi.

Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lif xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 13.10.2021 yildan kuchga kirdi.

Bugungi kungacha Mamlakatimizdagi 42 ta muktabda inklyuziv ta'lif joriy qilinib, ularga 76 nafar imkoniyati cheklangan bolalar qabul qilindi. Bu esa imkoniyati cheklangan o'quvchilarga har tamomlama keng imkoniyatlarning ochilishining boshlanishi demakdir.[7.7.:157 b]

XULOSA

Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» tamoyillari asos qilib olingan. Bu:

- Kamsitmaslik masalalari;
- Yashash va rivojlanish;
- Bolaning shaxsiy manfaati;
- Bolaning dunyoqarashi kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur tamoyillarni amalda qo'llash jarayonida bu vazifaning oson emasligi bilinadi. Ammo bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy an'analar va qadriyatlar ruhida tarbiyalashda shu kabi tenglik va o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero shu yo'l bilan jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va kattalarni faol hayot tarziga moslashtirishimiz mumkin. Bu orqali mamlakatimizda sog'lom mafkurali buniyodkor tafakkurli avlodlar yetishib chiqadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan qonun.
2. Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risi"gi 638-son qarori.
3. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy nazariy konfirensiya materiallari. Toshkent- "Uzinkomsent" 2002 yil.
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya xalqaro YuNISEF tashkiloti. Toshkent 1992 yil.



5. YUNESKOning 2003 yil O'zbekistonda 2-4 oktyabr kunlari "Inklyuziv ta'lif"ga oid seminar hujjatlari.
6. "Imkoniyati cheklangan o'smirlarni Ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslari" Maqsudova Nodira Alijonovna magistr darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi materiallari.
7. "Imkoniyati cheklangan boshlang'ich sinf o'quvchilari va ular uchun yaratilgan keng imkoniyatlar tasnifi" ilmiy maqola. Salimova Ganjina Salomovna "Pedagogs" international research journal 154-158 bet.
8. "Umumiy pedagogika" pedagogika ta'lif sohasi bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun darslik. B.X.Xodjaev: Toshkent 2017 yil.
9. Unisef.org